

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/28.02.2023.B.60.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SIDIQJANOV NODIRBEK MAXMUD O‘G‘LI

**ANDIJON SHAHRI URBANOFLORASINING ZAMONAVIY HOLATI VA
EKOLOGIYASI**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Sidiqjanov Nodirbek Maxmud o‘g‘li Andijon shahri urbanoflorasining zamonaviy holati va ekologiyasi.....	3
Сидикжанов Нодирбек Махмуд угли Современное состояние и экология урбанофлоры города Андижана.....	21
Sidikjanov Nodirbek Makhmud ugli Modern state and ecology of the urban flora of the Andijan city.....	41
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	45

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/28.02.2023.B.60.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SIDIQJANOV NODIRBEK MAXMUD O‘G‘LI

**ANDIJON SHAHRI URBANOFLORASINING ZAMONAVIY HOLATI VA
EKOLOGIYASI**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/B995 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.adu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Naraliyeva Nasibaxon Mamanovna
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Esanov Husniddin Qurbonovich
biologiya fanlari doktori, dotsent

Turginov Orzimat Turdimatovich
biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi PhD.03/28.02.2023.B.60.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 5-noyabr kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi, 129-uy, Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazi, 3-qavat, 301-xona. Tel./faks: +99874 223-88-30, e-mail: agsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (191^D – raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Tel.: +99874 223-88-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 21-oktabr kuni tarqatildi.
(2024 yil 21-oktabrdagi 3-raqamli reyestr bayonnomasi).

Yuldashev Akramjon Sultanmuradovich

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, biologiya fanlari doktori, professor

Umarov Farrux Ulugbekovich

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, biologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent

Zokirov Islomjon Ilxomjonovich

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
biologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kuchayib borayotgan urbanizatsiya jarayoni ekosistemalarga salbiy ta'sir ko'rsatib, biologik xilma-xillikning qisqarishiga olib kelmoqda. So'nggi yillarda dunyoning yirik shaharlarida antropogen omillar ta'siri o'simliklar biotoplarining transformatsiyasiga, kamyob turlarning yo'qolishiga va tabiiy-iqlim sharoiti uchun begona bo'lgan o'simlik turlarining kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan shaharlar urbanoflorasini zamonaviy tur tarkibini aniqlash, populyatsion ko'rsatchlarini ekologik baholash, kamyob va muhofazaga muhtoj o'simlik turlarini saqlab qolish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda urbanofloradagi turlar tarkibini aniqlanishi, sinantrop muhitlarda o'simliklar qoplaminig o'zgarishi, yangi o'simliklar jamoalarining shakllanishi, adventiv fraksiya turlari xilma-xilligining ortib borishini ochib berish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda. Ta'kidlash joizki, global iqlim o'zgarishi, shaharlashish va antropogen omillar natijasida o'simlik turlari tarqalish chegaralarining o'zgarishi, fitotsenozlarning dinamikasi hamda lokal turlarning qisqarishi kuzatilmoqda. Shunga ko'ra, shaharlar florasini inventarizatsiya qilish, avtohton va adventiv fraksiyalarning urbanoflorada tutgan o'rnini tahlil qilish hamda ekologiyasini ochib berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda tabiiy flora barqarorligini ta'minlash, kamyob va endem turlarni aniqlash, ularni muhofaza qilish hamda biologik xilma-xillikni saqlash borasida muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Bu borada O'zbekiston florasining yangi nashrlarini yaratish, antropogen omillarning avtohton turlarga ta'siri, urbanoflora turlari va ularning raqamli xaritalarini tuzish, urbanizatsiya jarayonlarini aniqlash, yo'qolayotgan turlarni bioiqlimiy modellashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash...” bo'yicha muhim vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalaridan kelib chiqqan holda, Andijon shahrining urbanoflorasiga antropogen omillar va sinantropizatsiyaning ta'sirini o'rganish, transformatsiya yo'llarini aniqlash, muhofazaga muhtoj turlarni bioiqlimiy modellashtirish, o'simliklar xilma-xilligini saqlash bo'yicha samarali choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni, “Avtomobil yo'llarini ko'klamzorashtirish va arxitekturalandshaft jihatdan tuzish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil 11-sentyabrdagi PQ-3262-son, “O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarini obodonlashtirishni yaxshilash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2009-yil 22-yanvardagi PQ-1045-son qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida” 2013-yil 13-avgustdagi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

223-son hamda “2019–2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 11-iyundagi 484-son qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Urbanlashgan hududlarning, jumladan, yirik shaharlarning urbanoflorasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, shahar floralarining kompleks tadqiqi, botanik-geografik va ekologik tahlili, yuksak o‘simliklarning turlar tarkibi va tuzilishi N.N.Makarova (2000), S.V.Babkina (2002), Ye.Yu.Xozyainova (2004), I.V.Lupova (2006), S.V.Ryabovol (2007), Ye.A.Borisova (2008), A.N.Shvetsov (2008), L.A.Agafonova (2010), I.L.Bulgakov (2010), Ya.M.Golovanov (2011), V.A.Notov (2011), T.M.Shabanova (2012), S.R.Mayorov va boshq. (2012), A.A.Notov (2012), R.X.Bordey (2013), Ye.A.Sklyar (2017), A.V.Verkhovina va boshq. (2022); sinantrop flora va sinantrop o‘simliklar qoplami K.V. Kachkin (2005), I.G.Sokolova (2006), Ye.A.Shuyskaya (2009), Ye.A.Devyatova (2016) kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Urbanofloralar tarkibini o‘rganish, zamonaviy konspektini tuzish, adventiv turlarning kirib kelish yo‘llari va tarqalishini N.Rakov, S.Saksonov (2013), Y.Golovanov, L.Abramova (2014, 2017), N.Panasenko (2018) tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda shahar hududi va unga yondosh hududlar bo‘yicha floristik, geobotanik va ekologik tadqiqotlar M.G.Popov (1923, 1924), A.Lapin (1938, 1941), K.P.Kaypov (2020), K.Sh.Tojibaev, H.Q.Esanov (2021), H.Q.Esanovlar (2017, 2023) tomonidan olib borilgan. Tabiiy flora va tabiiy o‘simliklar qoplaminin tahlili, antropogen transformatsiya jarayoni, noyob, endem va yo‘qolib borayotgan o‘simlik turlariga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari K.Sh.Tojibaev (2002, 2010), F.I.Karimov (2016) N.M.Naraliyeva (2022), G.A.Ibroximova (2020) tomonidan amalga oshirilgan. T.X.Maxkamov (2009) tomonidan olib borilgan tadqiqot ishi Farg‘ona vodiysining (O‘zbekiston hududi) ruderal florasini va ruderal o‘simliklar qoplaminin tadqiq etishga bag‘ishlangan. Qayd etilgan ilmiy ishlar va ilmiy manbalar asosida aytish lozimki, Andijon shahri urbanoflorasi bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shu nuqtayi nazardan urbanofloraning taksonomik tarkibini aniqlash, keng ko‘lamli tahlilini yoritish, o‘simliklar qoplaminin tuzilishini ekologik asoslash, kamyob, muhofazaga muhtoj o‘simlik turlarini muhofazaga olishga oid tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Farg‘ona vodiysida biologik xilma-xillikni saqlab qolish muammolari va yechimlari” (2020–2025 yy.), Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston florasini

to‘r tizimli xaritalash va uning ma’lumotlar bazasi” va A-FA-2021-427 sonli “O‘zbekiston florasidagi polimorf oilalarining taksonomik reviziyasi” (2021–2026 yy.) mavzularidagi amaliy va fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Andijon shahri urbanoflorasining zamonaviy holati va ekologiyasini ochib berish, uni biologik xilma-xillikni saqlab qolishdagi ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Andijon shahri urbanoflorasining taksonomik tarkibini aniqlash va keng ko‘lamdagi tahlillarni amalga oshirish;

urbanofloraning ekologik holatini baholash va tavsiflash;

tadqiqot hududi urbanoflorasining avtohton va adventiv fraksiyalarini aniqlash hamda qiyosiy tahlil qilish;

o‘simliklarning biotop xususiyatlariga ko‘ra ekologik guruhlariga ajratish va tavsiflash;

urbanofloradagi sinantropizatsiya jarayonining ekologik jihatlarini ochib berish;

iqlim o‘zgarishi ssenariylarida kamyob va endem turlarning tarqalishini bioiqlimiy modellashtirish va muhofaza chora-tadbirlari sifatida tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida Andijon shahri urbanoflorasi olingan.

Tadqiqotning predmetini Andijon shahri urbanoflorasining zamonaviy konspekti, ekologik xususiyatlari, tarqalish biotoplari, ekologik omillarning ta’siriga ko‘ra ekologik guruhlari hamda floraning taksonomik tahlili tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ekologiya hamda botanikaning klassik va zamonaviy usullaridan, jumladan, marshrutli, yarim statsionar, solishtirma-morfologik, biomorfologik, ekologik modellashtirish va to‘r tizimli xaritalash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Andijon shahri urbanoflorasi zamonaviy tarkibi 47 oila, 218 turkumga mansub 355 turdan iborat ekanligi aniqlangan va urbanofloraning zamonaviy konspekti tuzilgan;

ilk bor *Scorzonera laciniata*, *Trifolium medium*, *T. subterraneum*, *Heliotropium europaeum*, *Poa sylvestris* invaziv turlarining O‘zbekiston florasida uchrashi aniqlangan;

urbanoflora tarkibining ekologik guruhlariga ajratilgan holda tahlili amalga oshirilib, namlikka nisbatan mezofitlar va yorug‘likka nisbatan geliostsiofitlar ustunlik qilishi asoslangan;

Andijon shahri urbanoflorasiga adventiv turlarning transformatsiya yo‘llari aniqlangan, avtohton va adventiv fraksiyalari ajratilgan holda qiyosiy tahlili amalga oshirilib, bahorgi va kuzgi senuziyadagi dominant va subdominant turlar tarkibi ochib berilgan;

ilk bor Andijon shahri urbanoflorasining hududlar kesimida Shannon va Simpson indeksleri bo‘yicha biologik xilma-xillik ko‘rsatkichlari aniqlangan;

muhofazaga muhtoj o‘simlik biotoplarining transformatsiyaga uchrash sabablari asoslantirilgan, ularni saqlab qolishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan

hamda global iqlim o'zgarishining turli ssenariylari asosida kelajakdagi potensial tarqalishi modellashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot hududining mingdan ortiq floristik dala yozuvlari asosida doimiy monitoring olib borilgan, o'simliklarning davlat kadastrini yuritilgan va O'zbekiston florasining to'rt tizimli xaritasi ishlab chiqilgan;

dala tadqiqotlari davomida terilgan 355 turning 984 gerbariy namunalari Milliy gerbariy fondiga (TASH) topshirilib, O'zbekiston florasini bo'yicha axborot-tahlil tizimi to'ldirilgan;

kamyob va muhofazaga muhtoj o'simlik turlari populyatsiyalarining zamonaviy ekologik holati baholangan, ularni muhofazaga olishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

bioiqlimiy modellashtirish orqali kamyob turlarning yigirma yildan keyingi tarqalish holati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Floristikaning zamonaviy usullaridan foydalanilgani, dissertatsiya natijalarining xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokama qilinganligi, yetakchi ilmiy jurnallarda nashr etilganligi hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, to'plangan gerbariy namunalari O'zbekiston Milliy gerbariy (TASH) fondida foydalanilayotganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Andijon shahri urbanoflorasining taksonomik tarkibi aniqlanib, adventiv va avtohton fraksiyalarning qiyoslanganligi, shahar hududining ekologik holatini baholanganligi, biotoplar bo'yicha hamda bioxilma-xillik indekslari bo'yicha tahlillar amalga oshirilganligi, bahorgi va kuzgi senuziyada dominantlik qilayotgan turlar tarkibiga aniqlik kiritilganligi, adventiv turlarning kirib kelish yo'llari belgilanganligi va O'zbekiston florasini uchun yangi turlarning qayd etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, kamyob va muhofazaga muhtoj o'simlik turlarini muhofaza qilishga oid tavsiyalarning ishlab chiqilganligi, gerbariy namunalari va ishlab chiqilgan GAT xaritalari urbanoflorani ekologik baholashga hamda floristik tadqiqotlarga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Andijon shahri urbanoflorasining zamonaviy holati va ekologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

355 tur yuksak o'simliklarning ro'yxati keltirilgan bo'lib, ularning ekologik tavsifi, bioxilma-xillik ko'rsatkichlari, tarqalishi, geoaxborot-bioiqlimiy modellashtirilishi, yuksak o'simliklarga ekologik omillarning ta'siri, ekologik xususiyatlari, xo'jalikdagi ahamiyati hamda noyob turlarni muhofaza qilishga oid yangi ma'lumotlar va tavsiyalar Andijon viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Andijon shahar bo'limi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2023-yil 15-dekabrda 03-03/3-8210-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Andijon shahar o'simliklar dunyosi bioxilma-xilligining davlat monitoringini olib borish, o'simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritish hamda hududda tarqalgan yuksak

o‘simliklarning tur tarkibi, areallari va geoaxborot ma‘lumotlari bazasini shakllantirish imkonini bergan;

urbanoflorani ekologik baholash asosida muhofazaga muhtoj o‘simliklarni saqlab qolishga oid tavsiyalar Andijon viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 15-dekabrda 03-03/3-8210-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Andijon shahrining Bog‘ishamol dahasi va unga yondosh hududlardagi noyob, endemik, muhofazaga muhtoj o‘simlik turlarini aniqlash, ularning areallarini belgilash, saqlab qolish va populyatsiyalarini baholash imkonini bergan;

Andijon shahri urbanoflorasiga doir 355 turning 984 nusxadagi gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2023-yil 14-dekabrda № 4/1255-2761-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Andijon shahri urbanoflorasiga oid yangi gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysining noyob ilmiy obyektlari fondini boyitgan, turlarining tarqalishi, taksonomiyasi, ekologiyasi bo‘yicha olingan natijalar va dala tadqiqotlari davomida to‘plagan ilmiy ma‘lumotlar Andijon shahri urbanoflorasini to‘r tizimli xaritalash hamda O‘zbekiston florasini bo‘yicha axborot-tahlil tizimini to‘ldirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ilmiy tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shulardan, 1 ta tavsiyanoma hamda Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 119 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga muvofiqligi, tadqiqot ishi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalaridagi ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar tahlili, tadqiqot materiali va metodlari**” nomli birinchi bobida urbanoflorani o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning qisqacha tahlili, olib borilgan botanik va ekologik tadqiqotlar sharhi, tadqiqot hududining tabiiy shart-sharoitlari hamda tadqiqot obyekti va metodlari to‘g‘risida ma‘lumotlar bayon etilgan. Birinchi bobning birinchi

bo‘limida urbanoflorani o‘rganish bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar hamda mahalliy floraga bag‘ishlangan tadqiqotlarning tahlillari keltirilgan. Ikkinchi bo‘limda tadqiqot hududining tabiiy shart-sharoitlari, geografik joylashgan o‘rni, relyefi, geologik tuzilishi haqidagi ma‘lumotlar bayon qilingan. Uchinchi bo‘lim tadqiqot ishi bo‘yicha klassik va zamonaviy metodlarni yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda dala tadqiqotlari sharhi bayon etilgan. Andijon shahri urbanoflorasi yuksak o‘simliklarini o‘rganish bo‘yicha dala tadqiqotlari 2019–2023 yillar davomida olib borildi. Tadqiqot materiallari Andijon shahrining Bog‘ishamol dahasi adirlari, transport harakati faol bo‘lgan hududlar, temir yo‘l va unga yondosh hududlar, chiqindixonalar, seliteb va sanoat zonalari kabi tabiiy va antropogen biotoplardan to‘plandi. Olib borilgan dala tadqiqotlar natijasida 2416 ta gerbariy namunasi to‘plandi va 1000 dan ortiq floristik dala yozuvlari tuzildi. Floristik qaydnomalar davrida turlarning tabiiy sharoitlarda o‘shish nuqtalarini aks ettiruvchi geografik koordinatalari Google Earth dasturi yordamida, dala tadqiqotlaridagi yo‘nalish va indekslar, ularning koordinatalari “Tracklia” dasturi yordamida amalga oshirildi. Hududning to‘r tizimli xaritasi “ArcGIS 10.8.2” dasturida asosida WGS 1984 (World Geodetic System 1984) proektsiyasidan foydalangan holda yaratildi (1-rasm).



1- rasm. Tadqiqot olib borilgan hudud

To‘r tizimli xaritalar indekslar kesimidagi turlar xilma-xilligi (species richness) va gerbariy yig‘malari zichligi (collection density) bo‘yicha tuzildi. Muhofazaga muhtoj turlarni bioiklimiy modellashtirishda WorldClim Global climate and weather data orqali amalga oshirildi. Yig‘ilgan materiallar Andijon davlat universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi FA Botanika institutida tur darajasigacha aniqlandi. Taksonlarni identifikatsiya qilishda “Определитель растений Средней Азии” (1968-2015), “Флора Узбекистана” (1941-1962), “Флора СССР” (1934-1964) asarlaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

O‘simliklar ekologiyasiga oid ma’lumotlarni ishlab chiqishda xorijlik olimlarning R.I.Burda (1991), A.Ya.Grigorovskaya (2000), N.V.Ivanova (2010), O.Yu.Emelyanova (2015), A.S.Tretyakova (2021) tadqiqotlaridan foydalanildi. O‘simliklarni adventiv fraksiyasiga ajratishda A.Pyak (1992), O.Baranova (2018), E.Zykova (2015), A.Sennikov (2018), X.Esonov (2023) kabi olimlarning tajribalaridan foydalanildi. Olingan natijalarni statistik tahlil qilishda “Microsoft Excel 2019” dasturidan foydalanildi. A.P.Shennikov (1964) bo‘yicha o‘simliklarning namlikka nisbatan ekologik guruhlarini ajratilgan. Tadqiqot hududini biotoplarga ajratishda G.Y.Morozova (2003), O.A.Rudkovskaya (2006), A.A.Maksimov (2006)larning ishlaridan foydalanildi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobini “**Andijon shahri urbanoflorasining keng ko‘lamli tahlili**” deb nomlanib, unda urbanofloradagi turlarning taksonomik va biomorfologik tahlili, turlar xilma-xilligi, adventiv va avtohton fraksiya elementlarining urbanoflorada tutgan o‘rni to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limida urbanofloraning taksonomik tarkibi va tahlili yoritilgan (1-jadval).

1-jadval


Andijon shahri urbanoflorasidagi polimorf oilalar va ulardagi turkum va turlarning soni

№	Oilalar nomi	Turkumlar soni	Turlar soni	Jami turlar soniga nisbatan % hisobida
1	Asteraceae	31	54	15,2
2	Poaceae	28	52	14,6
3	Brassicaceae	29	40	11,2
4	Fabaceae	12	27	7,6
5	Amaranthaceae	10	18	5
6	Ranunculaceae	6	12	3,3
7	Lamiaceae	10	12	3,3
8	Caryophyllaceae	8	11	3
9	Boraginaceae	7	11	3
10	Geraniaceae	3	10	2,8
11	Apiaceae	9	10	2,8
12	Cyperaceae	6	10	2,8
13	Plantaginaceae	2	10	2,8
Jami:	13	161	277	78,1 %
	<i>Qolgan oilalar (34)</i>	57	78	21,9%
Umumiy soni:	47	218	355	100%

Taksonomik tahlil natijasida hududda yuksak o‘simliklarning 47 oila, 218 turkumga mansub 355 turi aniqlandi. Shundan bir urug‘pallalilar (Monocots) 8 oila (umumiy oilalarning 17%), 42 turkumga (19,2%) oid 81 tur (22,8%), ikki urug‘pallalilar (Eudicots) 39 oila (83%), 176 turkumga (80,8%) oid 274 tur (77,2%) tashkil qiladi. Ular o‘zaro 1:3,38 nisbatta ekanligi ma’lum bo‘ldi. Urbanofloradagi oila, turkum va turlarning 1:4,64:7,55 teng. Bu esa bitta oilaga o‘rtacha hisobda 4,64 turkum va 7,55 tur to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Shuningdek, 277 tur (77,4%) jamlagan 13 ta oila yetakchi polimorf oilalar sifatida ajratildi.

Oila spektri asosan floraning tashqi fizionomik xususiyatlarini belgilab beradi, turkumlar spektri esa uning ichki tuzilishlarini aks ettiradi va

o‘rganilayotgan floraning individual xususiyatlarini batafsilroq ochib berish imkonini beradi (Esonov, 2023). Urbanlashgan hudud florasida 7 polimorf turkum aniqlanib, ular hudud urbanoflorasining 13,8% ni tashkil qilishini ko‘rsatdi (2-rasm).



2-rasm. Andijon urbanoflorasining ayrim polimorf turkumlar spektri

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limida S. Raunkiaer (1934) tasnifi asosida turlarning hayotiy shakllari bo‘yicha taqsimlanish natijalari tahlil qilingan. Andijon shahri urbanoflorasining biomorfologik tahlili aniqlangan jami turlarning 62% (219 tur) terofit, 37% (108 tur) gemikriptofit, 5% (17 tur) kriptofit, 1% (4 tur) xamefit va 2% (7 tur) fanerofitlardan iboratligini ko‘rsatdi (2-jadval).


2-jadval

**Andijon shahri urbanoflorasining biomorfologik tahlili
(C.Raunkiaer, 1934 bo‘yicha)**

Hayotiy shakllar	Turlar soni	Umumiy turlar soniga nisbatan % hisobida
Terofit	219	62
Gemikriptofit	108	30
Kriptofit	17	5
Xamefit	4	1
Fanerofit	7	2
Umumiy:	355	100 %

Terofitlar yuqori ulushi tadqiqot hududida kuchli antropogen ta’sirlar borligini va ekologik shart-sharoitlarning tez-tez o‘zgarib turishini ko‘rsatadi. Bobning “Urbanoflora xilma-xilligini aniqlash va ekologik baholash” nomli keyingi bo‘limida urbanoflorada tarqalgan o‘simliklarning turlar xilma-xilligi (SR) va terilgan namuna zichligi (CD) bo‘yicha to‘r tizimli xaritada taqsimlanishi, bioxilma-xillik ko‘rsatkichlarining tahlili va ularni ekologik baholash haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Olib borilgan tahlillar turlar xilma-xilligi (boyli) bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich 146 turni va eng past ko‘rsatkich 5 turni tashkil etishini namoyon qildi. Shundan kelib chiqqan holda ularni: kam (5-32), o‘rtacha (33-76), ko‘p (77-146) ko‘rsatkichlarga ajratib o‘rganildi (3-rasm).



3-rasm. Andijon shahri urbanoflorasi turlar xilma-xilligi (SR) bo'yicha to'rt tizimli xaritada taqsimlanishi.

Shu o'rinda, turlar xilma-xilligi (SR) bo'yicha indekslarda turlar soni 1-32 tagacha bo'lgan kam ko'rsatkichga ega bo'lgan turlar 74 ta indeksda (umumiy indekslarning 46%), 33-76 tagacha bo'lgan o'rtacha ko'rsatkichga ega bo'lgan turlar 63 ta indeksda (umumiy indekslarning 39,13%) va oxirgi ko'p ko'rsatkichga ega bo'lgan 77-146 tagacha turlarni o'z ichiga olgan 24 ta indeksda (umumiy indekslarning 14,9%) uchrashishi aniqlandi.

Shuningdek, Bog'ishamol dahasi (Nukus ko'chasidagi O10 (90), O11 (88), N11 (90), Bog'ishamol ko'chasidagi N12 (106), N13 (140), N14 (120), N15 (120), N16 (100), N17 (103) indekslari), Islomobod MFY (Mirpo'stin ko'chasidagi J11 (146), Maybog'cha ko'chasidagi J12 (79) indekslari), Qoratut MFY (1-kichik dahasidagi J7 (73), Fayzli ko'chasidagi J8 (91) indekslari), Obod MFY (Do'stlik ko'chasidagi J2 (113), Mustaqillik ko'chasidagi I3 (80), Boyto'pi ko'chasidagi G2 (95) indekslari), Qo'shariq dahasi (Poloson ko'chasidagi V6 (106), Xo'ja ko'chasidagi V7 (86), Nayman ko'chasidagi V9 (86), Ohunboboyev ko'chasidagi S6 (95) indekslari) hududlarida turlar xilma-xilligi (SR) va yig'malar zichligi (CD) qolgan hududlarga nisbatan yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi (3-rasm). Mazkur holatni ushbu hududlarda adirlarning mavjudligi, katta ariqlarning oqib o'tganligi, qabriston hududlariga to'g'ri kelishi, antropogen ta'sirning qolgan hududlarga nisbatan pastligi, qarovsiz yerlarning borligi hamda o'simlikning o'sishi va rivojlanishi uchun nisbatan qulay muhit mavjudligi bilan izohlanadi.

Shannon indeksi bo'yicha o'rganilgan hududlar tahlil qilinganda, biologik xilma-xilligi yuqori darajadagi ko'rsatkichga ($3 < H'$) ega hududlar Andijon shahrida mavjud emasligi o'z isbotini topdi. O'rtacha ko'rsatkich ($1 < H' < 3$) Bog'ishamol adirlari, aholi yashash punktlari, istirohat bog'lari va qabriston hududlarida namoyon bo'ldi. Sanoat hududlari va transport yo'llarida esa biologik xilma-xillik ko'rsatkich past ($H' < 1$) ekanligi aniqlandi. Shuningdek,

o'simliklarining biologik xilma-xilligi Simpson indeksi asosida tahlili olib borilganda qabristonlar (0,89 D') yuqori ko'rsatkichni namoyon qildi. Bu esa qabristonlarda dominant turlar kamligi va aksincha turlar xilma-xillini yuqori ekanligini ko'rsatdi. Sanoat hududi (0,33 D') esa past ko'rsatkichni namoyon qildi.

Uchinchi bobning "Shahar urbanoflorasining adventiv fraksiyasi" deb nomlangan to'rtinchi bo'limida tadqiqot hududida tarqalgan adventiv turlarning hozirgi holati, urbanofloraga kirib kelish yo'llari hamda invaziv turlar ro'yxati va ular haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot hududida adventiv o'simliklarning chetdan kirib kelish sabablari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki, ksenofitlar (tasodifan olib kelingan) 114 tur, ergazioftlar (madaniylashtirishda qochganlar) 9 tur, ksenoi-ergazioftlar (o'rganilgan hududdan tashqarida yetishtirilgan, ammo begona hududga kiritilgan o'simliklar) esa 6 turdan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi. Andijon shahrida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, hudud urbanoflorasida adventiv fraksiyada 30 oila, 88 turkumga mansub 129 tur o'simliklar o'sishi aniqlandi. Shundan 58 ta tur invaziv holatga o'tgan. Invaziv o'simliklarning oilalar bo'yicha tahlillari shuni ko'rsatadiki, turlar sonining ko'pligi bo'yicha Asteraceae (12 tur), Brassicaceae (11 tur), Poaceae (9 tur), Amaranthaceae (6 tur) oilalari yetakchi o'rinlarda turadi.

Bobning "Mahalliy floraning dominant va subdominant turlari" deb nomlangan beshinchi bo'limida mahalliy floraning bahorgi va kuzgi sinuziyada dominat va subdominat turlarining tarqalishi, ularga ta'sir qilgan salbiy omillar va o'sish biotoplari bayon qilingan. Oltinchi bo'limda tadqiqot hududi florasining avtohton va adventiv fraksiyalarining o'zaro qiyosiy tahlil natijalari keltirilgan bo'lib, Andijon shahrining urbanoflorasining aborigen fraksiyasi tarkibida 226 tur, adventiv fraksiyasida esa 129 tur qayd qilindi. Aborigen turlar tadqiqot hududi umumiy urbanoflorasining 63.66% va adventiv turlar 36.34% tashkil etadi. O'zaro nisbat 1:1.75 tashkil qiladi. Avtohton va adventiv turlarining ekologik muhitlarda tarqalishida ham keskin farqlanishlar aniqlandi. Aborigen fraksiyaning asosini tabiiy hududlarda tarqalgan turlar tashkil etsa, adventiv fraksiyaning asosini ikkilamchi yashash joylarining turlari tashkil qildi.

Andijon shahrining urbanoflorasidagi avtohton va adventiv fraksiya elementlari o'zaro solishtirilganda o'ziga xos farqlar mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, fraksiya elementlari bir nechta guruhga bo'lib o'rganildi (3-jadval).

3-jadval

Andijon shahri urbanoflorasi avtohton va adventiv fraksiya elementlari

	Fraksiya elementlari	Turlar soni	Umumiy turlar % hisobida
Avtohton fraksiya	Sinantrop turlar	174	49%
	Antrofob turlar	42	11,8%
	Endem va kamyob turlar	10	3,5%
Adventiv fraksiya	Sinantrop turlar	59	16,6%
	Invaziv turlar	58	16,3%
	Antropofil turlar	12	3,3%
	Umumiy:	355	100%

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqot hududida adventiv fraksiyaga mansub bo'lgan antropofob va kamyob turlar uchramadi. Bu holat shaharga kirib kelayotgan turlarning antropogen omillarga chidamli ekanligi bilan izohlanadi, ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq sharoitlarda o'sib, rivojlanadigan turlar ko'proq uchrashini ifodalaydi.


Dissertatsiyaning **“Andijon shahri o'simliklarining landshaft-biotop xususiyatlari va ekologik tavsifi”** deb nomlangan uchinchi bobida Andijon shahri urbanoflorasining tabiiy va antropogen biotoplarida o'simliklarning tarqalishi, ekologik va biologik xususiyatlarini uzoq muddatli kompleks o'rganish natijalari keltirilgan.

Ushbu bobning birinchi bo'limida Andijon shahrining tabiiy (Bog'ishamol dahasi) va yarimtabiiy (soylardagi, ariq bo'ylaridagi, qabristonlardagi) biotoplari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ikkinchi bo'lim shaharning antropogen biotoplarida o'suvchi yuksak o'simliklarga bag'ishlangan. Andijon shahri urbanoflorasining antropogen biotoplarini madaniy va ruderal biotoplarga bo'lib o'rganildi. Istirohat bog'lari, maydonlar, maysazorlar, gulzorlar, hovlilar, ijtimoiy va biznes binolari, piyodalar yo'lakchalari, jamoat markazlari hududlari turar-joy massivlari, ta'lim muassasalari hududlari, kasalxonalar madaniy biotoplarning muhim qismlaridir. Chunki bu joylarda doimiy ravishda obodonlashtirish ishlari olib boriladi.

Andijon shahri urbanoflorasining ruderal biotoplari quyidagi hududlar kesimida o'rganildi

- transport harakati faol bo'lgan hududlar, yani ichki (A.Navoiy, A.Temur, Bobur shoh ko'chalari) va magistral (Yangi aylanma avtomobil yo'li) yo'llar;
- temir yo'l va unga yondosh hududlar (Universitet va Muqimiy ko'chalari);
- aeroport hududi (samolyotlarning uchish-qo'nish yo'laklari);
- chiqindixonalar va yon-atrof hududlari (axlatxonalar, turli xil chiqindi tashlash joylari);
- selliteb hududlar (aholi yashash punktlari, davlat tashkilotlari hududlari va ko'p qavatli turar-joy uylari);
- sanoat va sanoatlashgan hududlar (texnogen biotoplar).

Ushbu bobning uchinchi bo'limida tadqiqot hududidagi turli muhit sharoitlarida tarqalgan o'simliklarning namlikka nisbatan ekologik guruhleri haqida malumotlar keltirilgan. Andijon shahri urbanoflorasida namlikka nisbatan ekologik guruhleri tahlil qilinganda mezofitlar (177 tur, umumiy floraning 50%) ustunligi namoyon bo'ldi (4-rasm).



4-rasm. Namlik omiliga nisbatan urbanofloraning ekologik spektri

Shu bilan birga tadqiqot hududida kseromezofitlar va mezokserofitlarning ulushi yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Ushbu guruh vakillarining ko'pligi shaharning sinantropizatsiya darajasi yuqoriligi bilan izohlanadi.


Bobning "Andijon shahri urbanoflorasidagi sinantropizatsiya jarayonining ekologik jihatlari" deb nomlangan to'rtinchi bo'limida tadqiqot hududidagi o'simliklarga antropogen omillar ta'siri bayon qilingan. Andijon shahri urbanoflorasidagi apofitlar 199 turdan iborat bo'lib, umumiy sinantrop turlarning 61% ini tashkil qilsa, antropofitlar esa 128 tur bilan, umumiy sinantrop turlarning 39% ini tashkil qilishi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Andijon shahri urbanoflorasidagi sinantrop o'simliklar

Sinantrop elementlar nomi	Sinantrop darajasi	Turlar soni	Umumiy sinantrop turlar % nisbati
Antropofitlar	sinantrop bo'lmagan	-	
	shartli	28	8,5
	fakultativ	33	10
	majburiy	67	20,5
Jami:		128	39
Apofitlar	sinantrop bo'lmagan	41	13
	shartli	63	19
	fakultativ	66	20
	majburiy	29	9
Jami:		199	61
Umumiy:		327	100%

O'simlik dunyosining sinantrop turlari ikki elementdan – apofit va antropofitdan iborat bo'lib, bunday bo'linishni A. Tellung taklif qilgan (Thellung, 1905). Ushbu elementlarning birinchisi antropofitlar bo'lib, ushbu turlar mahalliy flora xos bo'lmagan begona o'simliklarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi element hisoblangan apofitlar esa antropogen yashash joylariga to'liq yoki qisman moslashgan mahalliy turlardan tarkib topgan (5-rasm).



5-rasm. Andijon shahri urbanoflorasidagi apofitlarning taqsimlanishi

Andijon shahridagi apofit turlarning tahlil qilinganda, evapofitlar 66 tur, gemiapofitlar 93 tur va tasodifiy apofitlar esa 51 turdan iborat ekanligi aniqlandi.


Evapofitlarning tadqiqot hududida ko'pligi shaharda sinantropiya muhitiga moslashgan turlar bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning “**Andijon shahrining muhofazaga muhtoj o'simliklari va ularni saqlab qolish chora-tadbirlari**” nomli to'rtinchi bobida endemik, kamyob va muhofazaga muhtoj turlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan hamda ularni saqlab qolish choralari va tarqalish joylarini hozirgi va kelajakdagi optimumligi bayon etilgan.


Ushbu bobning birinchi bo'limida kamyob va endemik turlarning hozirgi holati, ularga ta'sir qilayotgan turli antropogen omillar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Dala tadqiqotlari natijalari tahliliga ko'ra 10 endemik tur aniqlandi. Shundan, 4 ta Farg'ona vodiysi (*Acanthophyllum pungens*, *Tulipa ferganica*, *Allium michaelis*, *Fritillaria rugilosa*), 3 ta O'zbekiston (*Gagea khassanovii*, *Iris narynensis*, *Geranium baschkyzylsaicum*) hamda 3 ta O'rta Osiyo (*Tulipa turkestanica*, *Ranunculus sewerzowii*, *Zygophyllum oxianum*) endemlari ekanligi aniqlandi. Endemik, kamyob va muhofazaga muhtoj turlarning yuqori konsentratsiyasi Bog'ishamol dahasiga to'g'ri keldi. Ushbu hududda o'simliklarning xilma-xilligiga ta'sir etuvchi 4 turdagi antropogen omillar aniqlandi. Birinchisi, aholi sonining ortib ketishi, ikkinchisi, yerlardan qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish, uchinchisi, chorva hayvonlarini tartibsiz o'tlatilishi, to'rtinchisi esa o'simliklarning yashash joylarini butunlay yo'q bo'lishiga olib keladigan omillardan iborat ekanligi aniqlandi. Shuningdek, izlanishlar davomida o'simlik turlarining areallarini hozirgi va kelajakdagi optimumligi ham o'rganildi. Andijon shahrining Bog'ishamol dahasi hududlarida aniqlangan kamyob va endem turlarning tadqiqot hududida hozirdagi va kelajakdagi populyatsion tuzilishi hamda taqsimlanishini modellashtirildi.

Ekologik modelda hozirgi kunga nisbatan yaqin kelajak iqlim ssenariylarda *Iris narynensis* tarqalishi mumkin bo'lgan maydonlar sezilarli o'zgarishga uchrashini ko'rish mumkin. Iqlimning keskin antropogen o'zgarishi tur arealiga cheklovchi ta'sir qilishiga qaramay, turning yuqori va o'rta darajada yaroqli bo'lgan ekologik nishasi tadqiqot hududining janubiy-sharqiy tomoniga qarab kengayib borishi va tarqalishi mumkinligini ko'rsatdi. Dala tadqiqotlari davomida yuqorida keltirilgan hududlarda mazkur tur qayd etilmagan (6-rasm). Shuningdek, *Iris narynensis* turining bioiqlim ko'rsatkichlarining muntazam o'zgarib borishi Jackknife sinovi orqali tahlil qilindi (7-rasm).

Hozirgi kundan RCP 8.5 2040 iqlim ssenariysi ostida o'rtacha kunlik diapazon (bio2), eng issiq oyning maksimal harorati (bio5) hamda harorat yillik diapazoni (bio7) parametrlari yetarlicha yaxshi natijalarini ko'rsatdi hamda o'rtacha va yuqori darajadagi maydonlar kengayib borishi bilan izohlandi. Demak, Jackknife sinovi natijalariga ko'ra, *Iris narynensis* o'simligining tarqalishiga ta'sir qiluvchi asosiy bioiqlim ko'rsatkichlari o'rtacha kunlik harorat diapazoni (bio2), eng issiq oyning maksimal harorati (bio5) va harorat yillik diapazoni (bio7) hisoblanadi. Bu o'zgaruvchilar modelning aniqligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu o'zgaruvchilarni modelga kiritish o'simlik tarqalishi prognozlarini aniq qilishda muhim ahamiyatga ega.



6-rasm. *Iris narynensis* O.Fedtsch populyatsiyalarining Andijon shahri Bog'ishamol dahasi hududida tarqalishining hozirgi va kelajakdagi prognoz xaritalari: A- hozirgi; B- 2021-2040 yillar uchun ((RCP 8.5 iqlim ssenariysi asosida)



7-rasm. *Iris narynensis* O.Fedtsch turining bioiqlim ko'rsatkichlarining muntazam o'zgarib borishi (Jackknife sivoi orqali tahlili)

Bioqlimiy modellashtirish asosida RCP8.5 2040 iqlim ssenariylari bo'yicha havо haroratining 1,4–2,6 °C ga ko'tarilishi Andijon shahri urbanoflorasida tarqalgan kamyob va endem o'simlik turlarining kelajakdagi holati bashorat qilingan. Unga ko'ra, kelajakda *Iris narynensis*, *Geranium baschkyzylsaicum* yuqori va o'rtacha yaroqli o'sish maydonlarini egallaydi. O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan *Tulipa ferganica* hamda *Tulipa turkestanica* va *Allium michaelis* o'rta va past yaroqli o'sish maydonlari bo'yicha populyatsiyalarini kengaytiradi. Iqlim ssenariylari bo'yicha tabiiy holda tarqalgan *Gagea khassanovii* turining hozirgi va kelajakdagi populyatsiyalari orasida keskin o'zgarish kuzatilmaydi. RCP8.5 2040 iqlim ssenariylari asosida Farg'ona vodiysi endemigi bo'lgan *Fritillaria rugilosa* ning o'rtacha yaroqli o'sish maydonlarini qisqarishi aniqlandi.

XULOSALAR

“Andijon shahri urbanoflorasining zamonaviy holati va ekologiyasi” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarida quyidagicha xulosalar taqdim etildi:

1. Andijon shahar urbanoflorasining tarkibi 47 oilaga kiruvchi, 218 turkumga mansub 355 turdan iboratligi aniqlanib, zamonaviy konspekti tuzildi. *Scorzonera laciniata*, *Trifolium medium*, *T. subterraneum*, *Heliotropium europaeum*, *Poa sylvestris* singari invaziv turlar O'zbekiston florasida uchun birinchi marta qayd etildi va invaziv turlar ro'yxatiga kiritildi.

2. Hayotiy shakllar bo'yicha to'liq tahlillar amalga oshirildi, terofitlarning (219 tur, 62%) son jihatdan ustunligi aniqlandi. Bu holat shahar ekotizimlariga antropogen ta'sirlarning ortib borishi hamda urbanizatsiya darajasining kuchayishi bilan izohlandi.

3. Urbanofloraning biotoplardagi mavsumiy dinamikasi aniqlandi, bahorgi va kuzgi senuziyadagi dominant va subdominant turlar tarkibiga oydinlik kiritildi.

4. Tadqiqot hududining to'r tizimli xaritalash yordamida geofazoviy holati to'liq ochib berildi. Hududning ekologik holati kam, o'rtacha va ko'p ko'rsatkichli indekslar orqali baholandi. Kam ko'rsatkichli indekslar antropogen omillar ta'siri yuqori bo'lgan hududlarga, o'rtacha ko'rsatkichli indekslar antropogen ta'sir nisbatan kamroq bo'lgan hududlarga, ko'p ko'rsatkichli indekslar chala o'zlashtirilgan hududlarga to'g'ri kelishi aniqlandi.

5. Andijon shahrining biologik xilma-xilligi Shannon indeksi bo'yicha 2,52 H' (adirlar), 2,1 H' (qabristonlar), 1,82 H' (aholi yashash punktlari), 1,16 H' (istirohat bog'lari) – o'rtacha ba 0,63 H' (sanoat hududi), 0,78 H' (temir va avtomobil yo'llarining yon-atrofi hududlari) - eng past ko'rsatkichlarga to'g'ri kelishi aniqlandi. Simpson indeksiga ko'ra, qabristonlar (0,89 D'), adirlar (0,72 D'), istirohat bog'lari (0,67 D'), aholi yashash punktlari (0,61 D'), sanoat hududlari (0,33 D'), transport yo'llari (0,39 D') va ularga yondosh bo'lgan hududlarda turlarning dominantlik xususiyati antropogen bosim hisobiga noturg'un ekanligi qayd etildi.

6. Urbanoflora tarkibidagi turlar avtoxton (226 tur) va adventiv (129) fraksiya elementlariga ajratildi. Avtoxton fraksiya elementlarini tabiiy antropogen omillarning ta'siri kam muhitlarda, adventiv fraksiya elementlarini urbanlashgan hududlarda keng tarqalganligi ochib berildi. Bu esa urbanoflorada sinantropizatsiya jarayonini yildan yilga jadallashib borayotganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga adventiv turlarning kirib kelish yo'llari aniqlandi.

7. Urbanofloraning ekologik guruhlariga ajratilgan holda to'liq tahlili amalga oshirildi, bunga ko'ra namgarchilikka nisbatan mezofit (177/50%) hamda yorug'likka nisbatan geliostsiofit (154/43%) turlar ustunlik qilish aniqlandi.

8. Shahar biotopologik xususiyatlariga ko'ra tabiiy va antropogen biotoplar guruhlariga ajratildi. Har bir biotopdagi o'simliklarning tur tarkibi, ekologik holati, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari aniqlandi va ochib berildi. Urbanlashgan shahar fonida adventiv fraksiya elementlarining ortishi, areallarining kengayishi, populyatsiyalardagi individlar sonining ko'payishi va ularning muhit sharoitiga moslashishi sinantropizatsiya jarayonini kuchayib borishiga zamin bo'layotganligi bilan izohlanadi.

9. Bioiqlimiy modellashtirish asosida RCP8.5 2040 iqlim ssenariylari bo'yicha havo haroratining 1,4–2,6°C ga ko'tarilishi hisobiga Andijon shahri urbanoflorasida tarqalgan *Allium michaelis*, *Tulipa ferganica*, *T. turkestanica*, *Gagea khassanovii*, *Fritillaria rugilosa*, *Iris narynensis*, *Geranium baschkyzylsaicum* kabi kamyob va endem o'simlik turlarining kelajakdagi holati bashorat qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/28.02.2023.В.60.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

СИДИКЖАНОВ НОДИРБЕК МАХМУД УГЛИ

**СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ЭКОЛОГИЯ УРБАНОФЛОРЫ
ГОРОДА АНДИЖАНА**

03.00.10 – Экология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2023.3.PhD/В995.

Докторская диссертация выполнена в Андижанском государственном университете..

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.adu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Наралиева Насибахон Мамановна
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Эсанов Хусниддин Курбонович
доктор биологических наук, доцент

Тургинов Орзимат Турдиматович
доктор философии по биологическим наукам

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится 5 ноября 2024 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/28.02.2023.В.60.06 при Андижанском государственном университете. (Адрес: 170100, г. Андижан, улица Университетская, дом 129. Центр информационных ресурсов Андижанского государственного университета, 3-этаж, 301-комната. Тел./факс: +99874 223-88-30, e-mail: agsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрирован за № 191^D). (Адрес: 170100, г. Андижан, улица Университетская, дом 129. Тел.: 99874 223-88-14).

Автореферат диссертации разослан 21 октября 2024 года.
(Протокол реестра рассылки № 3 от 21 октября 2024 года)

Юлдашев Акрамжон Султанмурадович
Председатель научного совета по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор

Умаров Фаррух Улугбекович
Ученый секретарь научного совета по присуждению
учёных степеней, д.ф.б.н. (PhD), и.о. доцент

Зокиров Исломжон Илхомжонович
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., доцент

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Прогрессирующий процесс урбанизации в мире оказывает негативное воздействие на экосистемы, приводя к сокращению биологического разнообразия. В последние годы в крупных городах мира антропогенные факторы способствуют трансформации биотопов растений, исчезновению редких видов и проникновению растительных видов, чуждых естественным климатическим условиям. В связи с этим, определение современного видового состава городской флоры городов, экологическая оценка показателей популяций, сохранение редких и охраняемых видов растений имеет большое научно-практическое значение.

В мире особое внимание уделяется научным исследованиям, связанным с выявлением видового состава урбанофлоры, изменением растительного покрова в синантропных средах, формированием новых растительных сообществ и увеличением разнообразия видов адвентивной фракции. Следует отметить, что в результате глобального изменения климата, урбанизации и антропогенных факторов наблюдаются изменения в пределах распространения растительных видов, динамика фитоценозов, а также сокращение локальных видов. Поэтому, инвентаризация флоры городов, анализ роли автохтонной и адвентивной фракций в урбанофлоре, а также раскрытие их экологии имеют важное научно-практическое значение.

В нашей республике достигнуты определенные успехи в обеспечении устойчивости природной флоры, выявлении редких и эндемичных видов, их охране, а также в сохранении биологического разнообразия. В этой связи разработаны мероприятия по созданию новых изданий флоры Узбекистана, оценке воздействия антропогенных факторов на автохтонные виды, созданию видов городской флоры и их цифровых карт, определению процессов урбанизации, а также по биоклиматическому моделированию исчезающих видов. В частности, в Стратегии развития Нового Узбекистана² на 2022-2026 годы определены важные задачи по «охране окружающей среды и улучшению экологической ситуации в городах и районах...». Исходя из этих задач, изучение влияния антропогенных факторов и синантропизации на городскую флору города Андижана, выявление путей трансформации, биоклиматическое моделирование видов, нуждающихся в охране, а также разработка эффективных мер по сохранению растительного разнообразия имеют важное научное и практическое значение.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит при выполнении задач, определённых в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 11 сентября 2017 года Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-3262 «О мерах по совершенствованию архитектурно-ландшафтной конструкции и системы

² Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”. от 18 января 2022 года

благоустройства автомобильных дорог», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 22 января 2009 года № ПП-1045 «О дополнительных мерах по улучшению благоустройства населенных пунктов Республики Узбекистан», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 13 августа 2013 года № 223 «Об утверждении Программы развития ландшафтного дизайна в Республике Узбекистан» и в других нормативно-правовых актах в данной сфере.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

